



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM  
VAZIRLIGI

unicef 

har bir bola uchun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI UCHUN

# «ILK QADAM»

DAVLAT O'QUV DASTURI





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM  
VAZIRLIGI

unicef   
har bir bola uchun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI UCHUN

# ILK QADAM

DAVLAT O'QUV DASTURI

/TAKOMILLASHTIRILGAN IKKINCHI NASHR/



## Dastur mualliflaridan:

Dastur mualliflari Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF)ga, xususan, dasturning takomillashtirilgan ikkinchi nashriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda qo'llab-quvvatlagan, o'z fikr va tavsiyalarini taqdim qilganlarga samimiy va chuqrur minnatdorlik bildiradi.

*Mikailova Ulviya* UNICEF xalqaro maslahatchisi

*Shankar Dipa* UNICEF ta'lif seksiyasi rahbari

*Ismoilova Muazzam* UNICEF maslahatchisi

**Mualliflar:** *Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F.*

**Xalqaro ekspert:** *Mikailova Ulviya*

## Taqrizchilar:

*Shin Young Yee* Koreya Respublikasining Toshkent shahridagi Puchon universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (PhD)

*Sharipova Sh.S.* A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent shahar filialining "Ta'lif sifatini nazotar qilish" bo'limi boshlig'i, p.f.f.d (PhD), dotsent.

*Mamadaliyeva D.B.* Toshkent viloyati Angren shahar 38-son davlat muktabgacha ta'lif tashkiloti metodisti

**Muharrirlar:** *Isxakova M.R., Abdunazarova N.F., Maxmudova D.T.*

## Mas'uliyatni cheklash

Ushbu hujjatdagi fikrlar va bayonotlar faqat mualliflarga tegishli bo'lib, ular hech qanday tarzda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF), uning tashkilotlari, boshqaruv kengashi yoki ularning vakili bo'lgan mamlakatlarga tegishli emas.

Dastur muktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2021-yil 23-dekabrdagi 10-sonli bayonnomasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.



# MUNDARIJA

TUSHUNTIRISH XATI.....	5
<b>1-BOB.</b> UMUMIY QOIDALAR .....	7
1.1. Davlat o'quv dasturining qo'llanilishi .....	8
1.2. MTTning maqsad va vazifalari .....	8
1.3. Pedagogning roli .....	8
<b>2-BOB.</b> MTT TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING MAQSAD VA TAMOYILLARI.....	11
2.1. MTT ta'lism va tarbiya jarayonining maqsadi.....	12
2.2. MTTda ta'lism va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari.....	12
2.3. Qo'shimcha ta'lism xizmatlarini tashkil etish.....	13
2.4. Ta'lism olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lism va tarbiya jarayoni (inklyuziv ta'lism) .....	13
2.5. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik.....	14
<b>2-BOB.</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV .....	15
3.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari .....	16
3.2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari.....	17
3.2.1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi kompetensiyalari .....	18
3.2.2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari.....	18
3.2.3. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari.....	18
3.2.4. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari.....	19
3.2.5. "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari .....	19
<b>4-BOB.</b> TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI .....	21
4.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lism tashkilotining ta'lism va tarbiya jarayonida uning ahamiyati.....	22
4.2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lism va tarbiya jarayonini rejalashtirish ...	23
<b>5-BOB.</b> BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI BO'YICHA YUTUQLARI .....	27
<b>6-BOB.</b> RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL QILISH.....	29
<b>7-BOB.</b> DAVLAT O'QUV DASTURI BO'YICHA KUTILAYOTGAN TA'LIMIY NATIJALAR .....	31
<b>8-BOB.</b> RESURS TA'MINOT .....	33
<b>GLOSSARIY</b> .....	35
<b>"ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURIGA ILOVALAR</b> .....	37
<b>1-ilova.</b> MTT ta'lism dasturini yaratish bo'yicha tavsiyalar .....	38
<b>2-ilova.</b> MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi .....	46
Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi.....	46
Maktabgacha ta'lism va tarbiya muqobil shakllarining namunaviy kun tartibi .....	48

<b>3-ilova.</b>	Namunaviy o'quv reja .....	49
	Kichik (3 yoshdan 4 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori ....	49
	O'rta (4 yoshdan 5 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori .....	50
	Katta (5 yoshdan 6 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori .....	51
	Maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori.....	52
	Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning muqobil shakllari guruhlarida amalga oshiriladigan bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori .....	53
<b>4-ilova.</b>	Namunaviy yillik mavzuli reja .....	54
<b>5-ilova.</b>	Namunaviy haftalik reja .....	57
<b>6-ilova.</b>	MTTda o'tkazilishi belgilab qo'yilgan bayram tadbirlari ro'yxati.....	59
<b>7-ilova.</b>	Rivojlanish xaritasi .....	60
	3-4 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi.....	62
	4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi.....	69
	5-6 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi.....	76
	6-7 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi.....	84
<b>8-ilova.</b>	6-7 yoshdagи bolaning maktabga tayyorlik xaritasi.....	91
<b>9-ilova.</b>	Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi.....	94
<b>10-ilova.</b>	Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati .....	96

## QISQARTMALAR

**BHTK** – “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiya

**Davlat o'quv dasturi** – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi

**Davlat talablari** – O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari

**MT** – maktabgacha ta'lif

**MTT** – maktabgacha ta'lif tashkiloti

**MTV** – Maktabgacha ta'lif vazirligi

**TF** – tasviriy faoliyat



## TUSHUNTIRISH XATI

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lismi tashkilotlari uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq yaratilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining ikkinchi nashri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lismi jadal rivojlanayotgan ta'lismi sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lismi sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan davlat o'quv dasturiga (2018-yil) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashrini yaratish zarurati tug'ildi.

Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun quyidagi omillar asos bo'ldi:

- 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lismi va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta'lismi va tarbiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, maktabgacha ta'limda davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari<sup>1</sup>;
- dasturning birinchi nashrini qo'llashda orttirilgan tajriba va uning tahlili;
- 2021-yilda respublikamizning barcha hududlarida maktabgacha ta'lismi boshqaruvi organlari mutaxassislari, MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllari pedagoglari va metodistlari o'rtaida o'tkazilgan manzilli milliy so'rov natijasida aniqlangan fikr va takliflarining inobatga olinganligi;
- maktabgacha ta'lismi dasturlarini yaratish bo'yicha o'tgan yillar davomida to'plangan xalqaro tajriba.

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lismi va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

Mazkur hujjat maktabgacha ta'lismi muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.

Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lismi ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar davlat o'quv dasturining quyidagi jihatlarida o'z aksini topdi:

- **ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari** dasturning shaxsga yo'naltirilganligi, bola shaxsini hurmat qilish va har bir bolaning farovonligini ta'minlash zaruratini ta'kidlash uchun **batafsil ochib berildi va umumlashtirildi**;
- kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda **bolaning tayanch kompetensiyalari ochib berildi va to'ldirildi**;
- bolalar va pedagogning o'zaro hamkorligi yangi formatda, ya'ni "bolaning ovozini eshitish", uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o'quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko'paytirishga; loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga; individual tarzda va kichik guruhlarda ishslash uchun rivojlanish markazini tanlashga; kun davomida bolalar bilan o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta'lismi olshni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lismi va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 16-dekabr 2019-yil, ORQ-595-son

- **ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik yangilangan shaklda taklif etildi,** bunda ota-onalar va pedagoglarning umumiy maqsadi bolaga ta'lim va tarbiya berishdir; pedagog, oila va mahalliy hamjamiyat o'rtaida hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yanada xilma-xil imkoniyatlar taklif etildi;
- **ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari** bolalarning qiziqishlariga ko'ra, mustaqil faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashda ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan **rivojlaniruvchi muhit** to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirildi;
- dasturning inklyuziv xususiyati MTTning alohida ehtiyojli har bir bolaning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limda qo'shimcha yordam ko'rsatish majburiyatlari bilan mustahkamlandi;
- rivojlanish markazlarida tashkil etilgan bolalarning faoliyati loyiha mavzusi bilan to'ldirildi;
- **namunaviy kun tartibida** ta'lim va tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt o'zgartirildi, bu esa o'z o'rniда bolalarning erkin o'yin faoliyati, bolalarning qiziqishlariga ko'ra mustaqil faoliyatiga, shuningdek, mavzuli loyiha faoliyatiga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi;
- O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjalari muvofiq, xalqaro tajribani, shuningdek, boshlang'ich ta'lim bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida **o'quv reja** qisman o'zgartirildi;
- bola rivojlanishini kuzatish va baholash jarayonini optimallashtirish uchun **bolaning rivojlanish xaritalari** qisman o'zgartirildi.

Davlat o'quv dasturini tadbiq etishda pedagoglarga yordam tariqasida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga uslubiy yordam sifatida o'quv-uslubiy qo'llanmalar to'plami taklif etiladi. To'plam MTV mutaxassislari tomonidan BMTning O'zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF) bilan birqalikda ishlab chiqilgan bo'lib, oltita qo'llanmani o'z ichiga oladi: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish"; "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish"; "O'yin orqali ta'lim olish"; "Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi"; "Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik"; "Kuzatish va baholash".

Loyihaviy mavzuli faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish uchun "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini mavzuli rejalashtirish" qo'llanmasi taklif etiladi.



# 1-BOB

## UMUMIY QOIDALAR



Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lif tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lif va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, shuningdek, bolaning keyingi ta'lif bosqichiga o'tishidagi tayanch kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif davlat standartini amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Davlat o'quv dasturining asosiy vazifasi kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirish hisoblanadi.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta'lif tashkilotlari va muassasalarida qo'llanilishi majburiydir:

- ***davlat maktabgacha ta'lif tashilotlarida;***
- ***maktabgacha ta'lif sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi nodavlat MTTlarida;***
- ***ta'lif va tarbiyaning muqobil shakllarida;***
- ***"Mehribonlik" uylari maktabgacha ta'lif guruhlarida;***
- ***monitoring va uzlusizlikni ta'minlash maqsadida maktabgacha va boshlang'ich ta'lifni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida.***

## 1.1. DAVLAT O'QUV DASTURINING QO'LLANILISHI

Davlat o'quv dasturi muqobil, parzial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

MTT Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan muqobil, parzial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini qo'llash huquqiga ega.

MTT o'quv dasturi mutaxassislar va ota-onalarni jalb qilgan holda, pedagoglar tomonidan tuziladi va amalda qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadi.

## 1.2. MTTNING MAQSAD VA VAZIFALARI

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilagan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtaida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

## 1.3. PEDAGOGNING ROLI

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lif va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi.

Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lif va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lif va tarbiya jarayonini rejorashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga



va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi.

Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lif jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak.

Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shami. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi.

Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi.

Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.





## 2-BOB

# MTT TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING MAQSAD VA TAMOYILLARI



## 2.1. MTT TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING MAQSADI

Maktabgacha ta'lif tashkilotida ta'lif va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

## 2.2. MTTda TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Tamoyillar O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta'lif tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlanishi kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi.

### *MTT ta'lifva tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:*

- **Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.** Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o'ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta'lif olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanlidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.
- **Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish.** Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'lifdan teng foydalanish huquqiga ega.
- Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lif jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lif olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.
- **Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash.** MT - parvarish, ta'lif va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi; bu ta'lif va tarbiya jarayonida **barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini**, shuningdek, ta'lif olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo'yicha **integratsiyani** ta'minlash zarurligini belgillaydi.
- **Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.** Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.
- **O'yin orqali ta'lif olish va rivojlanirish.** O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lif olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.
- **MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.** Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlaring MTT ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lif va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lif oladilar va rivojlanadilar.



- **Milliy, tarixiy va madaniy an'analar, ma'naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish.** Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mas'uldir.

Ushbu tamoyillar maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o'quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta'lim berish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

## 2.3. QO'SHIMCHA TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISH

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari MTT tomonidan tashkilot imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, bolalar, oilalar va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari fakultativ hisoblanadi va ularni tashkil qilishda ko'ngillilar (volontyorlar), ota-onalar, mutaxassislar va homiyalar ishtirok etishi mumkin.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari asosiy ta'lim faoliyatidan tashqari amalga oshiriladi va MTT o'quv rejasiga kiritilmaydi. Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi pedagoglar, ko'ngillilar, homiyalar, mutaxassislar, ota-onalar mavzuli rejani ishlab chiqadilar, bu xizmat ko'rsatishga qarab, davlat o'quv dasturining yillik mavzuli rejasи asosida tuzilishi mumkin.

## 2.4. TA'LIM OLISHDA ALOHIDA EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI (INKLYUZIV TA'LIM)

Davlat o'quv dasturi har bir bolaning ta'lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o'quv dasturi hisoblanadi.

Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatları va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim olishi va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash – bu MTTning direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

Zarur bo'lganda, maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasi va rahbariyati tor mutaxassislarni jalb qilgan holda, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaning yakka tartibdagи rejasini<sup>2</sup> yaratadi.

Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va

<sup>2</sup> Qo'llanmadagi 1-ilovaga qarang // Maktabgacha ta'limda o'quv jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi//b. 55// Toshkent// 2020 yil

farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti va o'qitish usullarini moslashtirish zarur<sup>3</sup>.

## 2.5. OTA-ONALAR VA MAHALLIY HAMJAMIYAT BILAN HAMKORLIK

Maktabgacha ta'lism tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lism sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lism olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar<sup>4</sup> va mahalliy hamjamiyat<sup>5</sup> bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha **ota-onalarning malakalarini** rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klub, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbat, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);
- muntazam ravishda **muloqot** (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar);
- ota-onalarni guruh va/yoki maktabgacha ta'lism tashkilotiga **ko'ngillilik** faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);
- ota-onalarga **uyda bolaning o'qishni** davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lism olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihibarida ishtirok etish va boshqalar);
- maktabgacha ta'lism tashkilotiga oid **qarorlar qabul qilishda** ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishslash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiylar guruhlarning ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lism tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lism tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);
- bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda **mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish** (maktabgacha ta'lism tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilarini bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish).

<sup>3</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmaga qarang// Maktabgacha ta'lism muassasalarida o'quv jarayonini individuallashtirish. Alovida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan inklyuziyasi//b. 44//Toshkent//2020

<sup>4</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmani qarang//Oila va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik//Birinchinashr//28-bet//Toshkent //2020

<sup>5</sup> J. Epstein, et. al., School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action, on the internet as a PDF at [www.gpo.gov/fdsys/pkg/ERIC-ED467082/pdf/ERIC-ED467082.pdf](http://www.gpo.gov/fdsys/pkg/ERIC-ED467082/pdf/ERIC-ED467082.pdf).



## 3-BOB

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV



Maktabgacha ta'lif bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'lifning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

Davlat o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta'lif va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

**Kompetensiya** – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

**Kompetentli bola** o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

**Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif berishda kompetensiyaviy yondashuv** bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiysi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

### 3.1. MAKTABGACHA YOSHDAGI (6-7 YOSH) BOLANING TAYANCH KOMPETENSIYALARI

- **Kommunikativ**
- **Ijtimoiy**
- **Shaxsiy ("Men" konsepsiyasini qurish)**
- **Bilish**

**Kommunikativ kompetensiya** – atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati.

Bu kompetensiya nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lif muhitida bolalar og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg'ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo'lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o'zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytiganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funktsiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar.

Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lif olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

**Ijtimoiy kompetensiya** – bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar. Guruhlarda samarali ishslash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko'proq o'zlarini guruhning



bir qismi sifatida ko'radilar va o'z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan uyg'unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo'llab-quvvatlay oladilar.

**Shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish).** Shaxsiy kompetensiyanı rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi.

Bolalar hayotdagi o'z o'rnini biladilar, o'zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganadilar. Bola mustaqil va u o'ziga ishonadi. O'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U o'zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O'z g'oyalarini ilgari suradi va targ'ib qila oladi; o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganadi. U qanday tanlashni biladi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi. O'z harakatlari uchun tashabbus va mas'uliyatni namoyon qiladi. O'zining yaxshi ko'rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadi. O'sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi. O'z ehtiyojlarini bildiradi va ularni qondirishni biladi, o'zini boshqara oladi; sog'lom turmush tarzi qoidalariiga, madaniy-gigiyenik tartib qoidalarga rioya qiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, o'z salomatligi uchun mas'uliyatni namoyon qiladi.

**Bilish kompetensiyasi** bilim olish, o'qish va o'rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Harakat va o'zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o'rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagи yangi ob'yektlarni o'rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar.

Bolalar muammoni hal qilishga e'tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyonи tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo'yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin.

## 3.2. BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARI

Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning mifik ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- *jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi*
- *ijtimoiy-hissiy rivojlanish*
- *nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari*
- *bilish jarayonining rivojlanishi*
- *ijodiy rivojlanish.*

### **3.2.1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi kompetensiyalari**

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faoliyot ko'rsatadi;
- turli xil faol harakat turlarini uyg'un holda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini namoyon etadi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarni biladi;
- xavfsiz hayot faoliyati asoslari qoidalariga rioya qiladi.

### **3.2.2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari**

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z 'Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.

### **3.2.3. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari**

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to'g'ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- chet tilini o'rghanishga qiziqish bildiradi;
- chet tili bo'yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;
- badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- so'zning lug'aviy ma'nosi, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga tushunchaga ega bo'ladi;
- gapning turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so'zlab bera oladi;
- ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.



### **3.2.4. "*Bilish jarayonining rivojlanishi*" sohasi kompetensiyalari**

"*Bilish jarayonining rivojlanishi*" sohasidagi ta'lif va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga katta qiziqish bildiradi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil topadi va qo'llaydi;
- predmetlar, voqeа-hodisalar va holatlar o'rtaсidagi bog'liqlikni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, sanashni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematika hisoblarini amalga oshiradi;
- atrof-muhitni asrab-avaylash munosabatini namoyon etadi.

### **3.2.5. "*Ijodiy rivojlanish*" sohasi kompetensiyalari**

"*Ijodiy rivojlanish*" sohasidagi 'ta'lif va tarbiya jarayoni yakuniga 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;
- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.





# 4-BOB

## TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI



Ta'lrim va tarbiya jarayoni davlat talablari va davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida ta'lrim tili va chet tillaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"<sup>6</sup> gi qonuni bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lrim tashkiloti ta'lrim va tarbiya jarayonini o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. O'quv yili 2-sentabrda boshlanadi va 31-maygacha davom etadi.

1-iyundan 31-avgustgacha MTTda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

## **4.1. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING RIVOJLANISHIDA O'YINNING ROLI VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UNING AHAMIYATI**

Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lrim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi.

O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lrim olish bolalarni ta'lrim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O'yin – bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lrim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lrim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O'yin har xil bo'lishi mumkin – bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirosiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Erkin o'yinning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan o'yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak.

Ta'lrim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak. O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o'yiniga yordam berishlari muhimdir.

### ***Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning orni quyidagilar bilan ifodalanadi:***

- **bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar).** Pedagog o'yin maydonchasini tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va madaniyatiga mos keladigan rag'batlantiruvchi o'yin resurslari bilan ta'minlaydi. Pedagog xavfsizlik talablariga riosa qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham o'yin uchun imkoniyatlar yaratadi;
- **bolalar o'yinini rivojlantirish.** Pedagog bolalarga o'yin orqali o'rganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagog bolalarga o'yin holatiga kirishga va/yoki o'ynashni davom ettirishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantiradi. U bolalarning individual

6 O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili tugrisida»gi Qonuni 167-son - I, 21. 12. 1995 yil Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Axborotnomasi, 1995 yil, 12-son, m. 257; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 yil, 51-son, m. 514; 2010 yil, 37-son, m. 313; 2011 yil, 41-son, m. 449; 2017 yil, 37-son, m. 978; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592) <https://www.lex.uz/acts/121433>



- xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatları va rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida o'yinni rejalashtiradi;
- **bolalarning o'yinda o'zaro munosabatda bo'lismiga yordam berish.**

Bolalarni o'yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o'ynashini, bola o'yinda qanday ko'nikma va malakalarni namoyon etishini, o'zin orgali qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o'yinga qo'shilib, bolaning ta'lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo'llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi;

- **bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish.**

Pedagog rejasiga yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'zin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuviziz o'zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.

## **4.2. SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI REJALASHTIRISH**

Rejasiga yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'zin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuviziz o'zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.

O'quv rejasini tuzishda bolaning yoshi va individual rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

**O'quv rejasiga yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'zin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuviziz o'zlarini va qibiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.**

Kun tartibi ish maromini belgilashi va bolaga bir faoliyatdan ikkinchisiga muammosiz o'tishga yordam berishi kerak. Kun tartibini tuzishda muqobil shaklli guruqlar ishini tashkil qilishda kunduzgi uyqu hisobga olinmaydi, dam olish vaqt, sayr vaqt hisobga olinadi.

**O'quv rejasiga yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar to'monidan to'xtatilishidan qo'rmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'zin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuviziz o'zlarini va qibiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.**

Ta'lim va tarbiya jarayoni bolaning hayoti va uning atrof-muhitidan kelib chiqadigan yagona mavzular majmuiga birlashtirilgan va shuning uchun o'quv dasturi<sup>9</sup> aynan shu bir xil mavzular majmui doirasida rivojlanish markazlarida ta'lim va tarbiya jarayonining integratsiyasini ta'minlashi kerak.

<sup>7</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi// 2-ilova// Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllari, bolalar to'liq kun mobaynida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi.

<sup>8</sup> "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang// O'zin orgali o'rganish//birinchi nashr//11-bet, Toshkent//2020

<sup>9</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga 3-ilova// Namunali o'quv dasturi"

Ta'lrim va tarbiya jarayonini rejalashtirish ta'lrim sharoitlariga qarab o'zaro bog'liqlik, xilma-xillik va moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yil fasllari va ob-havo sharoitlarini ham hisobga olish kerak.

O'quv rejasini shakllantirishda mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olish kerak. Ta'lrim va tarbiya jarayonini rejalashtirishda makktabgacha ta'lrim tashkilotining o'quv rejasida hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda 20 foizgacha bo'lgan hududiy komponent va davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan majburiy komponentning 80 foizi ko'zda tutilgan<sup>10</sup>.

Mavzuli reja mavzu, maqsad, mazmun va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Faoliyatni tanlashda ta'lrim va tarbiya jarayonining umumiyligi maqsadlari bilan birga rivojlanish sohalari maqsadlari, mazmun va faoliyatining integratsiyasi ham hisobga olinadi.

Ta'lrim va tarbiya jarayonini rejalashtirish davlat talablarini, shuningdek, davlat o'quv dasturini amalgaga oshirishga yordam beradigan qisqa muddatli (haftalik) va uzoq muddatli (yillik) rejalarini yaratishni o'z ichiga oladi.

Mavzuli reja yozma shaklda bo'lishi kerak.

## **Yillik mavzuli reja**

Yillik mavzuli rejada oy mavzulari, har bir yosh yoki yosh guruhi uchun hafta mavzulari aks ettirilgan. MTT mintaqaning xususiyatlari va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o'z yillik mavzuli rejasini ishlab chiqish huquqiga ega. Makktabgacha ta'lrim tashkilotining yillik mavzuli rejasini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Makktabgacha ta'lrim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Makktabgacha ta'lrim tashkilotlarida ta'lrim jarayonini mavzuli rejalashtirish" (2018) tavsiyalariga tayanish tavsiya etiladi. Makktabgacha ta'lrim tashkilotining yillik mavzuli rejasiga<sup>11</sup> makktabgacha ta'lrim tashkilotining pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

## **Haftalik reja**

Haftalik reja yillik mavzuli reja asosida tuziladi va hafta mavzulari hamda hafta davomida ushbu mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Haftalik reja<sup>12</sup> barcha rivojlanish sohalari maqsadlarini belgilashga qaratilgan bo'lib, tegishli rivojlanish markazlarini tayyorlash, haftalik mavzuga muvofiq bolalar faoliyati turlarini rejalashtirish imkonini beradi. Hafta mavzusi guruhdagi barcha rivojlanish markazlarida o'tkazilishi kerak. Haftalik rejaga ko'ra guruhda ham, sayrda ham har xil turdag'i o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalarning o'yin faoliyati ularning xohishiga ko'ra<sup>13</sup> amalgaga oshiriladi.

Bolalar bilan ishlashning mazmuni va ketma-ketligi faoliyat turi (faol faoliyat/passiv faoliyat; individual faoliyat/kichik guruhda/katta guruhda; pedagog rahbarligida o'tkaziladigan faoliyat/ bolaning tashabbusi va tanlovi bo'yicha amalgaga oshirilgan faoliyat) va uni o'tkazish joyini (xona ichidagi faoliyat / ochiq havoda faoliyat) hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak

10 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang//Makktabgacha ta'lrim tashkiloti uchun dasturlarni ishlab chiqish//birinchi nashr//35-bet, Toshkent//2020

11 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 4-ilova//Namunaviy yillik mavzuviy reja//

12 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 5-ilova//Namunaviy haftalik reja//

13 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang//O'yin orqali o'rghanish//birinchi nashr//27-bet// Toshkent// 2020



Haftalik ish reja xilma-xil va moslashuvchan, ya'ni, ob-havoning o'zgarishi va bolaning qiziqishini hisobga olgan holda, rejalahtirilgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki bolaning mashg'ulot vaqtı moslashtirilishi mumkin. Misol uchun, agar pedagog bahorgi gulzorga tashrif buyurishni rejalahtirsа, lekin ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, unda bu mashg'ulotni xonada o'tkazilish mumkin bo'lgan boshqasiga almashtirishi mumkin.

***Haftalik reja*** - bu pedagogning ish jurnali bo'lib, unda ta'lif va tarbiya jarayonining kunlik rejasi aks ettiriladi. Mashg'ulot ishlanmalar kunlik rejaga ilova qilinishi mumkin. Ishlanmalar pedagogning xohishiga binoan, ijodkorlik va xilma-xillikdan foydalangan holda ishlab chiqiladi.





# 5-BOB

## BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI BO'YICHA YUTUQLARI



Maktabgacha ta'lif tashkilotida bolaning ta'lif olishi va rivojlanishini baholash kuzatishlar yordamida amalga oshiriladi. Pedagog bolalar hayotini muntazam va tizimli ravishda kuzatib boradi.

**Bolaning rivojlanishini kuzatish** – pedagog faoliyatidagi muhim mas'uliyatli ish. Kuzatishlarning maqsadi ta'lif va tarbiya jarayonida bolaning turli bilim va ko'nikmalardan qanday foydalanishi haqida ma'lumot to'plashdir. Bolalarni turli joy, vaqt va sharoitlarda kuzatib, pedagog ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi.

Pedagogik kuzatishlar natijasida olingen ma'lumotlar asosida ta'lif va tarbiya jarayoni rejalashtiriladi va takomillashtiriladi.

Kuzatish natijalarini hujjatlashtirish pedagogga ularni saqlash, vaqt o'tishi bilan sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzatish va bolaning ota-onalari, shuningdek, ushbu maktabgacha ta'lif tashkiloti mutaxassislari bilan bolalarning rivojlanishi va ta'lif olish xususiyatlari haqida ma'lumot almashish imkonini beradi. Bolaning rivojlanishi va ta'lif olishidagi yutuqlarini kuzatish va baholash natijalarini hujjatlashtirish uchun rivojlanish xaritalaridan foydalaniladi.

**Rivojlanish xaritasi** kuzatuvlarni hujjatlashtirish shakli sifatida bolaning turli sohalardagi rivojlanish darajasi to'g'risida muntazam ravishda ma'lumot to'plash jarayonini o'z ichiga oladi.

Rivojlanish xaritasi davlat talablari asosida bolaning rivojlanish sohalari, kichik sohalar va kutilgan natijalarga tayanadi.

**Bolaning rivojlanish xaritasi** har bir yosh guruhi (3-4, 4-5, 5-6, 6-7) uchun alohida yuritiladi va har bir bola<sup>14</sup> uchun bir yilda uch marta: o'quv yilining boshida, o'rtasida va oxirida to'ldiriladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotidan chiqishda **6-7 yoshli<sup>15</sup> bolaning matabga tayyorligi xaritasi** (faqat MTT bitiruvchilari uchun) to'ldiriladi.

<sup>14</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga 7-ilova// "Bolaning rivojlanish xaritasi"

<sup>15</sup> "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 8-ilova// "6-7 yoshdagi bolaning matabga tayyorlik xaritasi"



# 6-BOB

## RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL QILISH



Maktabgacha ta'lif tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:**

- **mazmunan boy** – davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- **o'zgartuvchan** – ta'lif va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi;
- **polifunktional** – rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- **muqobil** – guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta'minlaydigan turli xil materiallar, o'yinlar, o'yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi; o'yin materialining muntazam ravishda o'zgartirilishi, bolalarning o'yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag'batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo'lishi;
- **hammabop** – tarbiyalanuvchilar, shu jumladan, alohida ta'lif olish ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lif va tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta'minlaydigan o'yinchoqlar, qo'llanmalar, resurslar bilan ta'minlanganligi;
- **xavfsiz** – barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;
- **oqilona** – davlat o'quv dasturi va davlat talablariga muvofiq zamonaviy rivojlantiruvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta'lif tashkilotining turli ta'lif dasturlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish; inklyuziv ta'lif tashkil etilgan taqdirda, zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;
- **mahalliy sharoitga moslashtirilgan** – madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiatga, iqlimga bog'liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishi;
- **shaxga yo'naltirilgan** – pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o'yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar).


Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni maktabgacha ta'lif tashkilotining sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kamida 5ta rivojlanish markazlarini<sup>16</sup> tashkil etishni ta'minlashi kerak.

16 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 9-ilova// "Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi"



## 7-BOB

# DAVLAT O'QUV DASTURI BO'YICHA KUTILAYOTGAN TA'LIMIY NATIJALAR



Davlat o'quv dasturini o'zlashtirishdan kutilayotgan ta'lmiy natija mактабгача та'lim tashkilotini bitiruvchi bolaning tayanch kompetensiyalari (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish)ning shakllanganligi hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagog kuzatishlar yordamida har bir bolaning rivojlanishini davlat talablarida qayd qilingan rivojlanish sohalari va kichik sohalari bo'yicha barcha yosh guruhida bolaning mumkin bo'lgan yutuqlarining ijtimoiy-me'yoriy yosh xususiyatlarini kuzatib boradi.

Mактабгача yoshdagi bolalar rivojlanishining individual xususiyatlari mактабгача yoshdagi bolaning davlat talablariga to'liq mos keladigan ta'lim yutuqlariga qo'yiladigan talablarni cheklaydi va ta'lim dasturini o'zlashtirishda **kutilayotgan natijalar** shaklida aniqlash zarurligini belgilaydi.

#### **Davlat talablariga muvofiq kutilayotgan natijalar:**

- to'g'ridan-to'g'ri baholanmaydi, ya'ni bolalarning haqiqiy yutuqlarini davlat talablari bilan **rasmiy taqqoslashga** yo'l qo'yilmaydi (bunda bolalarning sinovdan o'tishlariga yo'l qo'yilmaydi);
- pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish, davlat o'quv dasturini o'zlashtirish sifatini baholash kabi boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun rasmiy asos bo'la olmaydi;
- bolalardan kutilayotgan natijalar direktor va pedagoglar uchun mактабгача ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayoni va MTT jamoasining kasbiy faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi.



# 8-BOB RESURS TA'MINOT



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat o'quv dasturini amalga oshirishning resurs ta'minoti O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Minimal resurslar bilan ta'minlanganlik kun tartibi va yillik rejada ko'zda tutilgan o'yin, qiziqishlarga ko'ra mashg'ulot va loyihibaviy faoliyatlarni amalga oshirishni ta'minlashi kerak. Shu bilan birga, ilovada<sup>17</sup> keltirilgan resurslar bilan bir qatorda ushbu markazlar va rivojlantiruvchi muhitni bolalar, ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati mahsulotlari bilan jihozlash tavsiya etiladi; shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari zarur o'quv va rivojlantiruvchi didaktik materiallarni yaratishda mahalliy hamjamiyat resurslari va o'zlarining ijodiy qobiliyatlariga tayanishlari mumkin.

---

<sup>17</sup> "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidagi 10-ilova// "Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati"



## GLOSSARY

**Alohiba ta'lism olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar** – nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohiba e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar.

**Individual ta'lism xaritasi** – bu tarbiyalanuvchining qiziqishlari va ta'lism talablari asosida tuzilgan, uning barcha qobiliyatlari va iste'dodlarini ochish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan o'quv faoliyati dasturi.

**Kvest** – (ing. „**Quest**“ „muammo“, „izlanish“, „sarguzasht“ degan ma'noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o'yin (ing. „Adventure game“)), uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. **Kvest** o'yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o'ziga xos ta'lism texnologiyasi.

**Maktabgacha ta'lism va tarbiya** – bolalarga ta'lism va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzuksiz ta'lism turi.

**Rivojlanish** (pedagogikada) – olg'a intilish natijasida muntazam o'zgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish.

**Tarbiya** – bu jamoa va pedagoglarning tarbiyalanuvchiga shaxsni mazmunan maqsadli shakllantirishdan iborat bo'lgan, maxsus tashkil etilgan, maqsadli va boshqariladigan ta'siri. Shu bilan birga, ta'lism tashkilotida va oilada ta'lism va tarbiya o'zaro uzviy bog'liqdir.

**Ta'lism va tarbiyaning muqobil shakli** - maktabgacha ta'lism va tarbiya tizimida innovatsion ta'lism va tarbiya jarayonini tashkil etish modeli;

**Fasilitatsiya** (yengillashtirmoq) – (ingliz tilidan „**facilitate**“ – „osonlashtirish“, „rag'batlantirish“, „qulay shart-sharoitlarni yaratish“) bu ongli o'quv jarayonlaridir, bolalarning qiziqishini oshirish uchun ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ularning o'ziga ishonchini orttirish, mustaqil va samarali faoliyatlariga bo'lgan ehtiyojlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan qulay muhit yaratish, rivojlanayotgan ta'lism usulidir;

**Fasilitator** – bu an'anaviy ta'lism konsepsiysi doirasida ishlamaydigan, aksincha, bolalarni o'zlarini o'rganish uchun yo'naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir (masalan, g'oyalarni tanlash, ular haqida o'z fikrlarini shakllantirish, tadqiqot va suhbat orqali materialni o'zlashtirish).

**Xulq-atvor** – bu shaxsning biror kishi yoki narsaga (masalan, shaxsga, guruhga, tashkilotga, masalaga, hodisaga, belgiga) nisbatan umumiy psixologik munosabati. Xulq-atvor ko'nikmalari odatda to'rt komponentdan iborat: xatti-harakat ob'ekti haqidagi e'tiqod va fikrlar, ob'ektga nisbatan hissiyot yoki tuyg'ular, ob'ektni baholash (ijobiy yoki salbiy) va ob'ektga nisbatan o'zini qanday tutishga moyillik.





# "ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURIGA

## ILOVALAR





## 1-ILOVA

# MTT ta'lim dasturini yaratish bo'yicha tavsiyalar

**Ta'lim dasturi** (quyida – Dastur) – MTT davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhidha tashkil etiladigan ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u davlat talablariga asosan kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlashi lozim.

Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida pedagoglar davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning eng maqbul va samarali shakl, metod hamda yo'llarini belgilaydi.

Dastur majburiy qism hamda ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda zaruriy hisoblanadi.

Dasturning **majburiy qismi** barcha beshta rivojlanish sohasi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni ko'zda tutadi.

Dastur bolalarning o'ziga xos sharoitlari, ta'lim ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, pedagog davlat talablarasi asosida ta'limning individual pedagogik modelini qanday yaratishini ko'rsatishi kerak.

Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi:

- **maqsadli** – bu tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim;
- **mazmunli** – bu dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim;
- **tashkiliy** – bu dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

Dastur MTTning pedagogik kengashida muhokama qilinadi va direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

## TA'LIM DASTURINING NAMUNAVIY TUZILMAVIY ELEMENTLARI:

1.	<b>Titul varag'i</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>● qachon va kim tomonidan tasdiqlangan, dastur kim bilan kelishilgan;</li><li>● maktabgacha ta'lif tashkilotining to'liq nomi va turi ko'rsatilgan dasturning nomi;</li><li>● mualliflarning F.I.SH, lavozimi;</li><li>● aholi punkti nomi, ishlab chiqilgan yil, ishlab chiqilgan dastur turi;</li><li>● MTT direktori tomonidan tasdiqlanadi</li></ul>
----	----------------------	--



### TAVSIYALAR

***Ta'lif dasturining titul varag'ida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish tavsiya etiladi:***

- varaqning yuqori o'ng burchagida dastur qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi haqida ma'lumot ko'rsatiladi (masalan, pedagogik kengash tomonidan ... sana, ... yildan);
- maktabgacha ta'lif tashkiloti direktorining muhri bilan tasdiqlanadi;
- sarlavha sahifasining markaziy qismida, qoida tariqasida, maktabgacha ta'lif tashkilotining to'liq nomi va uning turi ko'rsatiladi (masalan, "Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani "Yulduzcha" umumiy turdag'i maktabgacha ta'lif tashkilotining ta'lif dasturi");
- maktabgacha ta'lif tashkiloti nomi ostida dastur mualliflari (MTT direktori, metodist, psixolog, logoped-defektolog va pedagoglar), yoki ijodiy jamoa, shu jumladan, boshqa ta'lif tashkilotlari mutaxassislari (ilmiy rahbar, tuman maktabgacha ta'lif bo'limi mutaxassis) ko'rsatiladi.
- titul varag'ining pastki qismida maktabgacha ta'lif tashkiloti joylashgan aholi punktining nomi va ta'lif dasturi ishlab chiqilgan sana ko'rsatiladi;
- titul varag'ida boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin, masalan dastur hududiy maktabgacha ta'lif boshqaruv organlari tomonidan kelishilgan bo'lishi mumkin, bu holda tafsilotlar dasturning yuqori chap qismiga joylashtiriladi.

Pedagogik kengash tomonidan

Tasdiqlandi:

qabul qilindi:

MTT direktori №\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_»

Bayon №\_\_\_\_ sana\_\_\_\_\_

F.I.SH

№ \_\_\_\_\_ maktabgacha ta'lif tashkiloti

### DASTURI

Tuzuvchi:

Familiya, ism, otasining ismi \_\_\_\_\_

Malaka toifasi \_\_\_\_\_

Pedagogik stajji \_\_\_\_\_

Lavozimi \_\_\_\_\_

20 \_\_\_\_\_ й.

<b>2.</b>	<b>Mundarija</b>	sahifalar ko'rsatilgan holda dasturning barcha qismlari: paragraflar, bo'limlar nomi, adabiyotlar va ilovalar ro'yxati, matnda mavjud bo'lgan barcha sarlavhalarni o'z ichiga oladi. Ularning ta'rifi ish mazmuniga to'liq mos kelishi, qisqa, aniq va izchil bo'llishi hamda uning ichki mantiqiy qonuniyatlarini aniq ifodalashi lozim.
<b>3.</b>	<b>Maqsadli bo'lim</b>	Maqsadli bo'lim " <b>Umumiy qoidalar</b> " ni o'z ichiga oladi, unda tushuntirish xati va MTT faoliyatidagi muammolar tahlili, shuningdek, maktabgacha ta'lif tashkiloti haqida umumiylar, faoliyat yo'naliishi, peragoglarning oldingi davrdagi (odatda oxirgi 3 yildagi) faoliyatining asosiy natijalari tavsifini o'z ichiga oladi.
<b>3.1.</b>	<b>Tushuntirish xati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>● MTT guruhlari faoliyatining yo'naliishi;</li> <li>● dasturni ishlab chiqishning asosiy konseptual yondashuvlari tavsifi;</li> <li>● dasturni ishlab chiqishga asos bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ko'rsatish ham muhimdir;</li> <li>● ta'liming amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsadlari va qadriyatlar;</li> <li>● dasturning nimalarga/kimlarga qaratilganligi;</li> <li>● dasturni amalga oshirish muddati.</li> </ul>
<b>3.2.</b>	<b>Taklif etilayotgan dasturning dolzarbligi</b>	Dastur yaratish (tanlash) zarurligini asoslash. Maktabgacha ta'lif tashkilotida ta'lif dasturining muayyan turini ishlab chiqish yoki tanlash uchun nima asos bo'ladi? <ul style="list-style-type: none"> <li>● bolalar kontingentining ehtiyojlari;</li> <li>● ota-onas, mahalla buyurtmasi;</li> <li>● hududning madaniy-ma'rifiy xususiyatlari;</li> <li>● pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan mualliflik uslubiy ta'minot orqali guruhdha amalga oshirilayotgan ta'lif mazmunini kengaytirish imkonini beradigan maktabgacha ta'lif tashkilotlari mutaxassislari faoliyatining xususiyatlari, ularning malaka darajasi.</li> </ul>
<b>3.3.</b>	<b>Dasturning maqsadi *, qadriyatları ** va vazifalari</b>	Masalan, <ul style="list-style-type: none"> <li>● bolalar bilan pedagogik ishlarni insonparvarlashtirish;</li> <li>● "kattalar - bola" munosabatlarini insonparvarlashtirish;</li> <li>● o'yin – bu bolalar hayotini tashkil qilish usuli;</li> <li>● kognitiv-nutq, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish, bolalarning ijodiy, badiiy qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish uchun muqobil sharoitlarni yaratish;</li> <li>● bolaning hayotini, rivojlanish sharoitlarini maqsadga muvofiq tashkil etish;</li> <li>● "oila – MTT – matab" o'rtaсидаги узлуksizlik.</li> </ul>

\* Ta'lif dasturida amalga oshiriladigan maqsadlar umumiylar ta'lif maqsadlarini aniqlashtirishni nazarda tutgan holda turlicha bo'llishi mumkin, biroq uning aniq variantidan qat'iy nazar tarbiyalanuvchilarini o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va sog'lomlashtirish uchun shart-sharoitlarni amalga oshirishga qaratilgan. MTTning maqsad va vazifalari uning Nizomi hamda amalga oshiriladigan dasturlar va texnologiyalarga muvofiq ravishda belgilanadi.

\*\* Qadriyatlar, odatda, ta'liming umumiylar ideologik yo'naliishlariga mos keladi (bolaning har tomonlama rivojlanishi, axloqiy ong va xulq-atvorni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi, shaxsning umumiylar madaniyatini shakllantirish va boshqalar).

<b>3.4.</b>	<b>Muammolarni tahlil qilishga yo'naltirilgan faoliyat</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ta'limga ijtimoiy buyurtmaning xususiyatlari;</li> <li>pedagoglarning asosiy yutuqlari va muammolarini tavsiflash (<i>tarbiyalanuvchilarni sog'omlashtirish, ta'lif berish, tarbiyalash va rivoj-lantirishning individual natijalarini baholash</i>).</li> </ul>
<b>4.</b>	<b>Mazmunli bo'lim</b>	bola rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga, ta'lif va tarbiya jarayoni mazmuni va natijalariga, mintaqaviy komponentga, amalga oshirish uchun ta'lif va tarbiya jarayoni tashkil etish shakllariga muvofiq ta'lif va tarbiya jarayoni tavsifini o'z ichiga oladi.
<b>4.1</b>	<b>Dasturiy-uslubiy majmua</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>amalga oshirilayotgan dasturlar (<i>asosiy va qo'shimcha</i>);</li> <li>ta'lif texnologiyalari.</li> </ul>



### TAVSIYALAR

*"Dastur-uslubiy majmua" bo'limida maktabgacha ta'lif tashkilotlari pedagoglari tomonidan qaysi ta'lif texnologiyalari joriy etilishini ham ko'rsatish tavsiya etiladi. Qoida tariqasida, ular rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi va fagaqt barcha bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi, masalan:*

Rivojlanish sohalari	Ta'lif texnologiyalari (misollar)
<b>Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish</b>	Raqs-badiiy gimnastika – o'yin gimnastikasi, o'yin raqsi. Mashqlarning noan'anaviy turlari – barmoq gimnastikasi, musiqali-harakatli o'yinlar, o'yin stretchingi, sayohat o'yinlari va boshqalar.
<b>Ijtimoiy-hissiy rivojlanish</b>	Musiqiy terapiya, ritmik improvizatsiya, art terapiya, ertak terapiysi va boshqalar.
<b>Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari</b>	O'yinni almashtirish, tasviriy hikoyalar tuzish, qayta hikoya qilish, o'yin mashqlari, ertaklar to'qish, o'xshatish (metafora) tuzish, rasm asosida ijodiy hikoyalar tuzish, mnemotexnika va boshqalar.
<b>Bilish jarayonning rivojlanishi</b>	Loyiha usuli, tadqiqot va ijodiy loyihalar, rolli o'yinli loyihalar va boshqalar.
<b>Ijodiy rivojlanish</b>	Rasm chizishning noan'anaviy usullari, loydan yasash, aplikatsiyalar. Ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi (IMHQN) va boshqalar.

Faoliyatning ustuvor yo'nalishiga ega bo'lgan MTTda ish profili tegishli dasturlar va texnologiyalar bilan tasdiqlanishini e'tiborga olish kerak (masalan, ekologik yo'naltirilgan MTT lar dastur va texnologiyalarida badiiy-ijodiy emas, ekologik mazmun ustunlik qiladi).

Shuningdek, ushbu bo'limda keng qamrovli-mavzuli rejallashtirishni asosiy ta'lif sohalarini amalga oshirishni hisobga olgan holda taqdim etish tavsiya etiladi. Ushbu kichik bo'limning yoritilishi haftaning mavzusini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan har xil turdag'i faoliyat, shakllarda ochib beradigan integratsiyalashgan modelni nazarda tutadi.

**Keng qamrovli-mavzuli rejallashtirish** MTTning yo'nalishi va mintaqaviy hamda etnik-madaniy tar-kibiy qismlarni hisobga olgan holda, MTTning ictiyoriga ko'ra jadval shaklida taqdim etilishi mumkin. Mavzuli rejallashtirish \*\*\* (bolalar rivojlanishining asosiy sohalarini amalga oshirishni hisobga olgan

\*\*\* Maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini mavzuli rejallashtirish. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining O'MK tomonidan 2018-yil 30-avgust №1-sonli bayonnomma bilan tasdiqlangan.

holda). Ushbu kichik bo'limning yoritilishi haftaning mavzusini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan har xil turdag'i faoliyat, shakllarda ochib beradigan integratsiyalashgan modelni nazarda tutadi. Keng qamrovli-mavzuli rejada dasturning bo'limlari va mavzularini o'rganish ketma-ketlig'i yoritiadi. O'quv faoliyatining taqsimlanishi ko'rsatiladi. Bolalar bilan ishlash shakllari va yakuniy tadbirlar ko'rsatiladi.

Bola rivojlanishining asosiy sohalariga muvofiq ta'lifva tarbiya jarayonining tavisi:

- ***jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish***
- ***ijtimoiy va hissiy rivojlanish***
- ***nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari***
- ***bilish jarayonni rivojlantirish***
- ***ijodiy rivojlanish.***

Shuningdek, unda tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual psixologik xususiyatlarini, ularning ta'lif ehtiyojlari, motivlari va qiziqishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturni amalga oshirishning o'zgaruvchan shakllari, usullari va vositalarining tavsifini; dasturda ko'zda tutilgan, bolalar rivojlanishidagi buzilishlarni professional korreksiyasiga oid ta'lif faoliyatini tavsiflovchi, alohida ta'lif olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning moslashtirilgan dasturini yoritish nazarda tutilgan.

Dastur turli faoliyatlarda bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish sohalarining taxminiy mazmunini belgilaydi, masalan:

- ***o'yinli*** (syujetli-rolli o'yin, qoidalari va boshqa o'yin turlari);
- ***kommunikativ*** (kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot va o'zaro munosabat);
- ***kognitiv tadqiqotlar*** (kuzatish va ular bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida tabiiy va ijtimoiy dunyonи tadqiq qilish va bilish).

Shuningdek, bolalar faoliyatining quyidagi turlari:

- badiiy adabiyot va folklorni idrok etish;
- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va elementar maishiy ishlar (xonada va tashqarida);
- turli materiallardan, shu jumladan konstruktor, modul, qog'oz, tabiiy va boshqa materiallardan qurish-yasash;
- tasviriy (chizish, loydan yasash, applikatsiya);
- musiqiy (musiqiy asarlarning ma'nosini idrok etish va tushunish, qo'shiq aytish, musiqiy va ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblarida chalish);
- harakatli faoliyat (asosiy harakatlarni o'zlashtirish) shakllari.

MTT ish yo'nalishiga asoslanib, u quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar uchun ishlab chiqilgan o'zgaruvchan ta'lif yo'nalishlari (MTTda bo'lismning muqobil tartiblari, jismoniy faoliyat tartiblari, moslashtirilgan o'quv tartiblari);
- tarbiyalanuvchilarga individual yordam ko'rsatish uchun mutaxassislarini muvofiqlashtirish va ularning o'zaro hamkorligi.
- bolalar bilan sog'lomlashtirish ishlari tizimi, ko'ngilochar tadbirlar dasturi, muktabgacha ta'lif tashkiloti muayyan ixtisoslikka ega bo'lsa, tashxis va sog'lomlashtirish guruhlari bo'yicha farqlanishi;
- guruhning ta'lif faoliyatida (o'qitishda, sog'lomlashtirishda, tuzatish va rivojlantirish ishlarida, ta'lif natijalarini diagnostika qilishda) muktabgacha ta'lif tashkilotlari mutaxassislarini muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlar;



Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim ishlarini individuallashtirishni ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan, ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim taskilotlarida (bu o'z faoliyat profiliiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga xos) tarbiyalanuvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishlari (ta'lim, sog'lomlashtirish, korreksion-rivojlantiruvchi), yoki bolalar bilan individual ishslash vositalari (individual mashg'ulotlar, kuzatuv xaritalari, individual tashrif tartibi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislari tomonidan ota-onalarning individual maslahatlari va boshqalar) ham taqdim etilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan individual ish, asosan, bolalarning dasturiy bilimlarini rivojlantirish diagnostikasi natijalari asosida quriladi va kalendar rejalashtirishda o'z aksini topadi.

<b>5.</b>	<b>Tashkiliy bo'lim</b>	Mazkur bo'limda kun tartibi, o'quv yili tuzilmasi, ta'lim va tarbiya jarayoni jadvali (me'yoriy hujjatlarga muvofiq), yoshni hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, tarbiyalanuvchilarining yoshi va individual xususiyatlari, ularning ta'lim ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan ravishda dasturni amalga oshirishning turli shakllari, metod va vositalarining qisqacha ta'rifi beriladi. Shuningdek, turli xildagi faoliyatning o'ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarining oilalari bilan o'zaro hamkorlik turlari ifodalanishi mumkin.
<b>5.1.</b>	<b>Bolalar bilan ta'limiy ishlar tizimi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yosh guruhlari bo'yicha umumiy kun tartibi;</li> <li>• ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari va usullari;</li> <li>• umumiy o'quv yuklamasi (<i>darslar taqsimoti, markazlarda ishslash</i>).</li> </ul> <p><b>Kun tartibini tashkil etish</b> – SanPiNga muvofiq bolalarning guruhda bo'lishi. Mazkur guruhning yosh xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining xususiyatlari, SanPiN talablarini hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdag'i bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lishining bat afsil tartibi ilova qilinadi.</p> <p>Qo'shimcha ravishda quyidagilarni ilova qilish mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• harakatlar tartibi;</li> <li>• korreksion mashg'ulotlar, to'garaklar, seksiyalar jadvali;</li> <li>• bolalarni chiniqtirish tartibi va boshqalar.</li> </ul>
<b>5.2.</b>	<b>Ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar shakllari</b>	<p>Bu bandda ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratadigan faoliyatning turli shakllari va usullarini taqdim etish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy-madaniy muhitining xususiyatlari, oila bilan o'zaro munosabatlarning shakllari va usullari;</li> <li>• pedagoglarning ijtimoiy-madaniy loyihalari.</li> <li>• MTT pedagoglarning asosiy ijtimoiy sheriklari bilan o'zaro munosabatlarning bat afsil yoritilishi (<i>ma'lum yo'nalishlarga ega MTT uchun</i>);</li> <li>• tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, ta'limning uzluksizligi va ketma-ketligini ta'minlashga qaratilgan pedagoglarning ijtimoiy-madaniy loyihalari taqdim etiladi.</li> </ul> <p>Ushbu ma'lumot haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Oila va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" qo'llanmasiga qarang. Ota-</p>

		onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar shakllari jadval shaklida taqdim etilishi mumkin. Batafsil ma'lumot bilan "Oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" qo'llanmasida tanishishingiz mumkin.
6.	<b>Dasturni amalga oshirish shartlari</b>	Bu bo'limga moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanganlik, o'quv-uslubiy ta'minlanganlikni ( <i>dasturlar, texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-uslubiy va o'quv adabiyotlari, bolalar va ota-onalar uchun adabiyotlar, internet resurslari, o'quv kompakt disklari, didaktik materiallar, hujjatlar</i> ) taqdim etish tavsiya etiladi.
6.1.	<b>Maktabgacha ta'lif tashkilotlari ta'lif muhitining xususiyatlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• rivojlanish muhitining individual yo'naltirilganligi (<i>uni ta'minlash shartlari</i>);</li> <li>• rivojlanish markazlarini tashkil etish;</li> <li>• asosiy jihozlar;</li> <li>• o'quv-uslubiy ta'minot;</li> <li>• bola rivojlanishining muhim sohalariga qaratilgan asosiy didaktik va uslubiy qo'llanmalarning xususiyatlari.</li> </ul>



## TAVSIYALAR

### Ta'lif dasturining mazkur bo'limini to'ldirishda quyidagilarni ko'rsatish muhimdir

- MTT rivojlanish muhitida foydalaniladigan yaxlit asosiy komponentlar (*guruuh, suv havzasi, tasviriy san'at studiyasi, tabiat xonasi va boshqalar*);
- MTT binosi va yer maydonida joylashgan foydalanilayotgan asosiy jihozlar.

Masalan, u jadval shaklida taqdim etilishi mumkin:

No	MTT binosi va xonalari jihozlari	MTT yer maydonining jihozlari
1.	Guruhlarda mavjud bo'lgan barcha jihozlar ko'rsatiladi	MTTning o'yin va sport maydonchalarida mavjud bo'lgan barcha jihozlar ko'rsatiladi
2.		
...		

Jihozlar ro'yxatiga qo'shimcha ravishda, qo'llaniladigan uslubiy va didaktik yordamning tavsifi – o'quv dasturini bu bo'limining muhim qismi bo'lib hisoblanadi, chunki haqiqiy ta'lif va tarbiya jarayonining mazmunini aynan shu belgilab beradi. Mumkin bo'lgan barcha ro'yxatlardan pedagoglarga faqat eng zarur jihozlarni ko'rsatish tavsiya etiladi, bu ularni davlat talablariga muvofiq bolalar rivojlanishining asosiy sohalariga ham yo'naltiradi.

Masalan, u jadval shaklida taqdim etilishi mumkin

No	Rivojlanish sohalari	Asosiy metodik qo'llanmalar	Asosiy didaktik ta'minot
1	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish		
2	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Pedagoglar foydalanadigan uslubiy qo'llanmalar ko'rsatiladi	Tarbiyanuvchilar bilan ishlashda qo'llaniladigan asosiy didaktik materiallar, o'yinlar ko'rsatiladi
3	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari		
4	Bilish jarayonning rivojlanishi		
5	Ijodiy rivojlanish		



6.2.	<b>Dasturni amalga oshirish shartlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• dastur qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanishini ko'rsatish;</li> <li>• dastur maqsadlarini amalga oshirish sifati;</li> <li>• bolalarni sog'lomlashtirish, ta'lif va tarbiya berish, rivojlantirish va korreksiyalashning individual natijalarini monitoring qilish;</li> <li>• pedagoglarning kasbiy o'sishi va individual yutuqlari dinamikasi;</li> <li>• agar mavjud bo'lsa innovatsion ishlarning reja-xaritasi, innovatsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy natijalari.</li> </ul>
7.	<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b>	Ishni tayyorlashda <b>foydalanilgan</b> manbalar haqidagi bibliografik ma'lumotlar kiritiladi



### TAVSIYALAR

#### **Ro'yxatda dasturni ishlab chiqishda foydalanilgan adabiyotlar ko'rsatiladi.**

Kitob yoki maqola haqidagi qisqa bibliografik ma'lumot o`z uchiga quyigilarni jamlaydi:

- muallifning familiyasi, ismi, sharifi;
- sarlavha;
- nashr qilingan joy, nashriyot, chop etilgan yili;
- sahifalar soni.

8.	<b>Dasturdagi ilovalar</b>	Ushbu bo'limda dastur uchun nazariy materialni tushuntira oladigan ilovalar ko'rsatilgan
----	----------------------------	--



### TAVSIYALAR

#### **Ushbu bo'limda quyidagilar ko'rsatilishi mumkin:**

- mashg'ulot ishlanmalari, tadbirlar, bayramlar ssenariylari
- pedagoglarning keng qamrovli faoliyatini aks ettiradigan (*reja*) ishchi dastur (*tarbiyachi, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi va boshqalar*);
- o'yinlar va o'yin mashqlari tavsifi;
- pedagog va ota-onalar uchun mahorat darslari ssenariylari;
- tarbiyalanuvchilar oilalari bilan hamkorlikning turli shakllari (*maslahatlar, davra suhbatlari, treninglar, seminarlar*).

## 2-ILOVA

# MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi

### Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi

No	Kun tartibi	Vaqtning tax-miniy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
1.	Bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati, ertalabki badantarbiya	7:30 – 8:20	50
2.	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20 – 8:45	25
3.	Ertalabki davra suhbati	8:45 – 9:00	15
4.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	9:00 – 9:40	40 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15-20 daqiqa
5.	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanlovida ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	9:40 – 10:30	50
6.	Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatl o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	10:30 – 11:30	60
7.	Sayrdan qaytish [kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar, individual faoliyat ( <i>zarurat bo'lganda, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari</i> )]	11:30 – 12:00	30
8.	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00 – 12:30	30
9.	Guruh xonasida erkin o'yin faoliyati	12:30 – 13:00	30
10.	Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu <i>Uyqusiz guruhlarda: bolalarning erkin va tinch o'yin faoliyati, bolalar bilan individual ishslash, badiiy adabiyot o'qish</i>	13:00 – 15:00	120
11.	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	15:00 – 15:10	10
12.	Ikkinci tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:10 – 15:30	20
13.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	15:30 – 16:10	40 Har bir faoliyat turining davomiyligi 15-20 daqiqa
14.	Erkin o'yin faoliyati	16:10 – 16:50	40



Nº	Kun tartibi	Vaqtning tax-miniy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
15.	Ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lism xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishslash	16:10 – 16:50	40
16.	Kechki davra suhbati/kun refleksiyasi	16:50 – 17:10	20
17.	Ikkinci sayr, erkin o'yinlar	17:10 – 17:55	45
18.	Ota-onalar bilan ishslash va bolalarning uyga ketishi	17:30 – 18:00	30

**Eslatma:** Pedagog hafta mavzusiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayoni shakli (katta, kichik guruhda, individual va rivojlanish markazlarida)ni belgilaydi. Bolalarning MTTda bo'lish vaqtiga qarab hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuni, joylashuvi va ish tartibini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq o'zining kunlik ish tartibini ishlab chiqishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, pedagogga ota-onalarni bolaning rivojlanishi to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilish tavsiya etiladi.

**Ertalabki davra suhbati** – bu kunning boshlanishi, bolalarning boshlangan yangi kundan zavqlanish, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashish, yangiliklarni bilish (bugun ular nima qilishlari), birgalikdagi rejalar, muammolarni muhokama qilish va qoidalarni kelishish uchun yig'ilishadi.

**Kechki davra suhbati / o'tgan kun refleksiyasi** – bolalar bilan kun davomida eng esda qolarli va eng qizi-qarli bo'lgan amallarni eslash, amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish va umumlashtirish hamda ertangi kun uchun tadbirlarni rejalashtirish)

Bolalar uchun ochiq havoda sayrning kunlik davomiyligi kamida 3-4 soatni tashkil etiladi. Bu harakat kuniga 2 marta tashkil etiladi: kunning birinchi yarmida - tushlikdan oldin va kunning ikkinchi yarmida - kunduzgi uyqudan keyin yoki bolalar uyga ketishidan oldin.

**Birinchi sayr** – pedagog tomonidan tashkil etiladi, u asosiy faoliyat turlari (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatlari o'yin, mustahkamlash, erkin faoliyat)larni o'z ichiga olib, hafta mavzusiga mos tashkil etiladi.

**Ikkinci sayr** – iqlim sharoitiga (ochiq havoda, resurslarga ega rivojlanish markazlarida) ko'ra bolalarning tanlovi bo'yicha erkin o'yin faoliyati.

**Qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlari** ota-onalarning iltimosiga binoan asosiy ta'lim va tarbiya jarayonidan tashqari amalga oshiriladi, kunning ikkinchi yarimida ular qo'shimcha ta'lim pedagogi bilan bir vaqtning o'zida boshqa xonada o'tkazilishi mumkin, shuningdek, belgilangan vaqtida guruh pedagigi bolalarning erkin o'yin faoliyatini kuzatadi, shuningdek, individual ishlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## Maktabgacha ta'lif va tarbiya muqobil shakllarining namunaviy kun tartibi

No	Режим дня	Vaqtning tax-miniy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
<b>1-smena 8:30-12:40 (3,5-4 soat)</b>			
1.	Bolalarni qabul qilish, ertalabki ko'rik, ertalabki badantarbiya	8:00 – 8: 30	30
2.	Ertalabki davra suhbati	8:30 – 8:50	20
3.	Ta'lif va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	8:50 – 10:30	100 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat 20 daq.
4.	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviiga ko'ra o'yin asosidagi ta'lif va tarbiya jarayoni	10:30 – 11:10	40
5.	Nonushta	11:10 – 11:25	15
6.	Kun refleksiyasi	11:25 – 11:40	15
7.	Sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	11:40 – 12:10	30
8.	Ota-onalar bilan ishslash va bolalarning uyg'a ketishi	12:10 – 12:40	30
9.	Pedagoglar uchun tushlik tanaffus va ikkinchi smena mashg'ulotlariga tayyorgarlik	12:40 – 13:40	60
<b>2-smena 13:40-18:20 (3,5-4 soat)</b>			
1.	Bolalarni qabul qilish, ko'rnikdan o'tkazish, badantarbiya mashqlari	13:40 – 14:10	30
2.	Umumiy davra suhbati	14:10 – 14:30	20
3.	Ta'lif va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	14:30 – 16:10	100 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat 20 daq.
4.	Rivojlanish markazlarida hafta mavzusi bo'yicha bolalar tanloviiga ko'ra o'yin asosidagi ta'lif va tarbiya jarayoni	16:10 – 16:50	40
5.	Yengil tamaddi	16:50 – 17:05	15
6.	Kun refleksiyasi	17:05 – 17:20	15
7.	Sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	17:20 – 17:50	30
8.	Ota-onalar bilan ishslash va bolalarning uyg'a ketishi	17:50 – 18:20	30

**Eslatma:** maktabgacha ta'lif va tarbiyaning muqobil shakllariga maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar, mobil guruhlar, qayerda faoliyat yuritishidan qat'iy nazar, 6-7 yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlari kiradi.



## 3-ILOVA

# Namunaviy o'quv reja

### Kichik (3 yoshdan 4 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashadirish davri mobaynida			
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o'quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog'lomlashadirish davrida	
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko'ngilochar o'yinlar - 1	1	3	
	Sayrda	1	4	36		4	12	
2.	Musiqa	2	8	72	Ko'nilochar o'yinlar	1	3	
3.	Xoreografiya	2	8	72	Raqslı ko'ngilocharlar	1	3	
4.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12	
5.	Konstruksiyalar tuzish/ applikatsiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	4/4	12/12	
6.	Loydan yasash	1	4	36	1	4	12	
7.	Sensor tarbiya	1	4	36	Mantiqiy o'yinlar	1	3	
8.	Elementar matematika	1	4	36	Mantiqiy o'yinlar	1	3	
9.	Fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya	1/1	2/2	18/18	Tajribalar, o'yinlar, viktorinalar – 1	4	12	
10.	Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish	1	4	36	1	4	12	
11.	Badiiy adabiyot	1	4	36	O'yinlar, viktorinalar – 1	4	12	
		Kunduzgi uyqu ko'zda tutilmaganda uyqudan oldin o'qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o'qish tavsiya etiladi.						
Mintaqaviy komponent		Mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda, o'quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko'ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko'zda tutilgan.						
Jami		14	56	504	6	30	90	

## O'rta (4 yoshdan 5 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o'quv yili davo-mida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog'lomlashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko'ngilochar o'yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiqqa	2	8	72	Ko'nilochar o'yinlar	1	3
3.	Xoreografiya	2	8	72	Raqslı ko'ngilocharlar	1	3
4.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
5.	Konstruksiyalar tuzish/ applikatsiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6
6.	Loydan yasash	1	4	36	1	4	12
7.	Elementar matematika	1	4	36	Mantiqiy o'yinlar	1	3
8.	Fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya	1/1	2/2	18/18	Tajribalar, o'yinlar, viktorinalar – 1	2/2	6/6
9.	Развитие речи, навыки чтения и письма	2	8	72	1	4	12
10.	Badiiy adabiyot	2	8	72	O'yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uqqu ko'zda tutilmaganda uyqudan oldin o'qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o'qish tavsiya etiladi.					
	Mintaqaviy komponent	Mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda, o'quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko'ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko'zda tutilgan.					
<b>Jami</b>		<b>15</b>	<b>60</b>	<b>540</b>	<b>7</b>	<b>32</b>	<b>96</b>

**Izoh:** Atrof-muhit va tabiat bilan tanishish boshlang'ich ta'lifning uzluksizligini ta'minlash va xalqaro tajribani hisobga olgan holda tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan almashtirildi, chunki tabiatshunoslik tabiat ob'ektlari, hodisalari va jarayonlari haqidagi bilimlarning umumiyligini belgilaydi.



## Katta (5 yoshdan 6 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashadirish davri mobaynida			
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o'quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog'lomlashadirish davrida	
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko'ngilochar o'yinlar – 1	1	3	
	Sayrda	1	4	36		4	12	
2.	Musiqqa	2	8	72	Ko'nilochar o'yinlar	1	3	
3.	Xoreografiya	2	8	72	Raqslı ko'ngilocharlar	1	3	
4.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12	
5.	Konstruksiyalar tuzish/ applikatsiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6	
6.	Loydan yasash	1	4	36	1	4	12	
7.	Elementar matematika	2	8	72	Mantiqiy o'yinlar	1	3	
8.	Fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya	1/1	2/2	18/18	Tajribalar, o'yinlar, viktornilar – 1	2/2	6/6	
9.	Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish	2	8	72	1	4	12	
10.	Savodxonlikka o'rgatish	1	4	36	1	4	12	
11.	Xorijiy til	2	8	72	1	4	12	
12.	Badiiy adabiyot	1	4	36	O'yinlar, viktornilar – 1	4	12	
		Kunduzgi uyqu ko'zda tutilmaganda uyqidan oldin o'qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o'qish tavsiya etiladi.						
Mintaqaviy komponent		Mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda, o'quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko'ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko'zda tutilgan.						
<b>Jami</b>		<b>18</b>	<b>72</b>	<b>648</b>	<b>9</b>	<b>40</b>	<b>120</b>	

## Maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida			
